

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.01.2023.K/T.78.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XODJAMKULOV SAHOMIDDIN ZOIROVICH

**MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARIDAN OLINGAN
EKSTRAKSION FOSFAT KISLOTASINI TOZALAB, FTORLI TUZLAR
VA FTORSIZLANTIRILGAN FOSFORLI O'G'ITLAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz – 2024

UO‘T 661.634.222:(66.067.9:546.161)+661.632.73

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the abstract of dissertation doctor of science

Xodjamkulov Sahomiddin Zoirovich

Markaziy Qizilqum fosforitlaridan olingan ekstraksion fosfat kislotasini tozalab, ftorli tuzlar va ftorsizlantirilgan fosforli o‘g‘itlar olish texnologiyasini yaratish..... 3

Ходжамкулов Сахомиддин Зоирович

Разработка технологии получения фтористых солей и обесфторенных фосфорсодержащих удобрений очисткой экстракционной фосфорной кислоты из фосфоритов Центральных Кызылкумов..... 29

Khodjamkulov Sakhomiddin Zoirovich

Creating technology for fluorinated salts and defluorinated phosphorus fertilizers by purifying extraction phosphoric acid obtained based on Central Kyzylkum phosphorites..... 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 59

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSC.03/30.01.2023.K/T.78.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

XODJAMKULOV SAHOMIDDIN ZOIROVICH

**MARKAZIY QIZILQUM FOSFORITLARIDAN OLINGAN
EKSTRAKSION FOSFAT KISLOTASINI TOZALAB, FTORLI TUZLAR
VA FTORSIZLANTIRILGAN FOSFORLI O'G'ITLAR OLISH
TEXNOLOGIYASINI YARATISH**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Termiz - 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.DSc/T696 ra'jam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Termiz muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (termisu.uz) va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Mirzakulov Xoltura Chorievich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy oponentlar:

Jumaniyozov Maqsud Jabbiyevich
texnika fanlari doktori, professor

Alimov Umarbek Kadirbergenovich
texnika fanlari doktori

Ergashev Dilmurod Adiljanovich
texnika fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2023.K/T.78.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning «30» 05 2024 yil soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ 248 raqamli bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43 uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «15» 05 kuni tarqatildi.

(2024 yil «15» 05 dagi 5- raqamli reyestr bayonnomasi).



I.A.Umbarov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari dokteri, dotsent

Sh.A.Kasimov
Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash kotibi,
kimyo fanlari dokteri, dotsent

R.V.Aliqulov
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik
Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, kimyo fanlari dokteri, professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda kimyo sanoatida fosfatli birikmalar ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi bilan litosferada ifloslantiruvchi moddalarning, xususan ftor birikmalarining yig'ilishi, shuningdek, ftor va uning birikmalarining yuqori biologik faolligi tufayli atrof-muhitga tuzatib bo'lmaz darajada zarar yetkazmoqda. Biroq, iqtisodiyotning turli sohalarida keng qo'llaniladigan ishqoriy metallarning ftoridlariga bo'lgan talab juda yuqori. Shu sababli, o'simlik va chorvachilikni xavfsiz mahsulotlar bilan ta'minlash uchun ammofos ishlab chiqarishda oraliq mahsulotlar sifatida ftor birikmalarini ajratib olish, buning natijasida esa respublikamizdagi aylanma iqtisodiyotni rivojlantirish hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish xomashyosi bo'lgan ekstraksion fosfat kislotasini (EFK) ftorsizlantirish va uni samarali fosforli mineral o'g'itlar, ozuqabop fosfatlar hamda ftoridli tuzlarga qayta ishlashning zamonaviy texnologiyalarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bu borada, Markaziy Qizilqumning (MQ) yuvib kuydirilgan fosfor konsentratidan (YuKFK) olingan EFKdan ftorni tozalashning samarali usullarini ishlab chiqish, ishqoriy metall tuzlari va amorf kremniy oksidi qo'llash bilan EFKni ftordan tozalash koeffitsientiga turli xil texnologik parametrlarning ta'sirini aniqlash, kerakli tarkib va xususiyatlariga ega bo'lgan ftorsizlantirilgan EFK olishning maqbul sharoitlarini topish, ftorsizlanish va natriykremniyftoridni Na_2SiF_6 ni natriy va kalsiy ftoridlariga qayta ishlash jarayonlarining maqbul texnologik sharoitlarini aniqlash, texnologik omillarga gidroliz jarayonining ta'sirini aniqlash, ftorfosfatli cho'kmalarni (FFCh) kislotali-termik usulda ishlov berish yo'li bilan natriy, kalsiy va ammoniy ftoridni bosqichma-bosqich cho'ktirish orqali olish texnologiyasini ishlab chiqish, ftorsizlantirilgan fosfat kislota, ammofos, ozuqabop monoammoniyfosfat va Na_2SiF_6 , natriy hamda kalsiy ftoridlarni olish jarayonining moslashuvchan texnologik sxemasini ishlab chiqishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy MQ fosforitlaridan kislotali, kislotali-termik va cho'ktirish usullaridan foydalangan holda ftorsizlantirilgan fosfatlar olish sohasida fundamental va amaliy tadqiqot natijalariga erishilmoqda. O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanish rejalarida milliy iqtisodiyot barqarorligiga erishish, YaIMning sanoat tarkibiy qismini ko'paytirish va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni 1,4 barobarga oshirishga qaratilgan muhim vazifalar belgilangan¹. Bu borada, jumladan EFKni natriy, kaliy va kalsiy tuzlari bilan ftorsizlanish, kislotada eriydigan kremniy (IV)-oksidi va natriy hamda ammoniy gidroksidlari kabi qimmatli komponentlarni sirkulyatsion sxema bo'yicha jarayonga qaytarish sxemasining texnologik ko'rsatkichlarini tanlash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar ftorni talab qilinadigan me'yorlarigacha kamaytirish va uning asosida ekologik xavfsiz fosfatlar, ftoridlar va boshqa turli xil tuzlarni ishlab chiqarish Respublikada tannarxi past bo'lgan samarali o'g'itlar va ozuqabop fosfatlarini ishlab chiqarish uchun alohida dolzarb ahamiyatga ega.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni hamda 2019 yil 3-apreldagi PQ-4265-son «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2020 yil 28-dekabrda PQ-4937-son «O‘zbekiston Respublikasining 2021-2023 yillarga mo‘ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, 2021 yil 13-fevraldagi PQ-4992-son «Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi shuningdek, mazkur faoliyatga tegishli me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII «Kimyo texnologiyalari va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy- tadqiqotlar sharhi².

Turli tabiiy fosfatlardan ftersizlantirilgan EFK, toza fosforli o‘g‘itlar va ozuqabop fosfatlar olish bo‘yicha dunyoning etakchi ilmiy markazlarida ilmiy-tadqiqotlar amalga oshirilmoqda, jumladan: Florida Industrial and Phosphate Research Institute (AQSh), Engineering Dobersek GmbH (Germaniya), University of Science and Technology (Xitoy), Fertilizer Research Center (Polsha), The Chemical Society of Japan (Yaponiya), Department of Chemistry (Hindiston), Department of Mining & Metallurgical Engineering (Eron), Ya.V.Samoylov nomidagi «NIUIF» AJ (Rossiya), Sankt-Peterburg DTI (Rossiya), O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti (O‘zbekiston).

EFK tarkibidagi ftorni turli ishqoriy tuzlar ishtirokida tozalash asosida ftersizlantirilgan fosfat kislotasi olish usullari bo‘yicha jahonda olib borilgan tadqiqotlarda quyidagi bir qator ilmiy natijalar olingan, jumladan: kislotadan ftorni natriy tuzlari bilan tozalash usullari ishlab chiqilgan (Boshqiriston texnologiya instituti, Ufa sh, Rossiya), metall aralashmalaridan Fe_2O_3 va Ca^{2+} , Mg^{2+} , Al^{3+} , F^- , SiF_6^{2-} , SO_4^{2-} ionlarini sorbent va ionalmashinuvchi smolalar yordamida ajratish texnologiyalari takomillashtirilgan (Polsha tadqiqot markazi, Polsha), EFKni konsentratsiyasini birinchi bosqichda bug‘latish bilan 50-54% P_2O_5 oshirish va EFKdagi 70% gacha bo‘lgan ftorni kam eruvchan Na_2SiF_6 va K_2SiF_6 shaklida cho‘ktirish usullari ishlab chiqilgan (Sankt-Peterburg davlat texnologiya instituti, Rossiya), gaz fazasidagi gazlar aralashmasidan ftorli gazlarni sorbsion usulda ajratib olingan (AQSh), ekstraksion fosfat kislotani ftersizlantirib, ishqoriy metall tuzlari olingan (Xitoy), ekstraksion fosfat kislotasi tarkibidagi ftorni ekstraksion usulda ajratib olingan (Yaponiya).

²Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi <http://www.scholar.google.com>, <http://www.sciencedirect.com> <https://science.sciencemag.org>, <https://www.annualreviews.org> va boshqa manbaalar materiallari asosida tayyorlangan.

Dunyoda EFKni ishqoriy metallar tuzlari bilan ftorsizlantirish va ftorsizlantirilgan fosforli o'g'itlar hamda ozuqabop fosfatlarga qayta ishlash bo'yicha quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, jumladan, EFKga kislotada eruvchan kremniy kiritish orqali ftorli tuzlar shaklida cho'ktirish, ftorli cho'kindilarni natriy, kalsiy ftorid tuzlariga qayta ishlash, EFKni ftorsizlantirish uchun zamonaviy resurstejamkor texnologiyalarni takomillashtirish va yaratish, natriy kremniyftoridni ishqoriy gidrolizlab natriy silikat eritmasini siklga qaytarish usullarini topish, ftorsizlantirilgan fosforli o'g'itlar va ozuqabop fosfatlarga qayta ishlash uchun yangi texnik yechimlarni ishlab chiqish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ko'pgina olimlar turli xil fosfat xomashyolaridan olingan EFKni turli aralashmalaridan tozalash muammolari bilan shug'ullanishgan, jumladan: Pozin M.Ye., Kochetkov S.P., Dmitrevskiy B.A., Zaysev V.A., Sharipov T.V., Bushuev N.N., Volkova V.V., Smirnov N.N., Mustafin A.G., Rakcheeva L.V., Grinevich A.V., Kovalenko A.M., Zilberman B.Ya., Xromov S.V., Vorobev N.I., Semenov A.D., Heng W., Skafi M., Lijun Z., Zinin D.S., Das S.K., Yadav K., Zhu X., Antipov S.V., Li X., Huang R., Kirish K.S., Namazov Sh.S., Gafurov K., Erkayev A.U., Mirzakulov X.Ch., Shamshidinov I.T. va b. Ushbu ishlar asosan EFKdan ftor, sulfatlar va R_2O_3 ni ajratib olishga bag'ishlangan, ammo MQ YuKFKdan olingan EFKni ftordan tozalashni ishlab chiqish tadqiqotlari, ko'rsatkichlarining bir butun texnologik siklida MQ YuKFKning qayta ishlash jarayoniga ta'siri, YuKFKning mineralogik va kimyoviy tarkibi ta'siri, ftorsizlantiruvchi reagent turlarini tozalash jarayonining texnologik ko'rsatkichlariga ta'siri, ajratish, gidrolizlash, absorbsiya va tayyor mahsulot ftorsizlantirilgan EFK olish va uning asosida ammofos, natriy, kalsiy va ammoniy ftorli tuzlarini olish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar mavjud emas.

So'nggi yillarda EFKni ishqoriy tuzlar, organik reagentlar bilan ftorsizlantirish va ularni siklga qaytarish bo'yicha ko'plab tadqiqotlar nashr etilmoqda. Ushbu texnik yechimlar qo'shimcha kapital mablag'larni talab qiladi. Shuning uchun, EFKni ftordan tozalash natijasida olingan suspenziyalarni cho'ktirish va filtrlash tadqiqotlari yo'qligini, xuddi shunday natriy va ammoniyning ftorli tuzlari, NaOH bilan gidrolizlab natriy silikat eritmasi va EFK bilan FFChni kislotali-termik parchalash, shu orqali natriyning silikat va fosfatli tuzlari bilan EFKni ftorsizlantirishning siklik usulini yaratish hamda ajralib chiqqan ftor birikmalarini qayta ishlash uchun texnik yechimlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatish kerak.

Ishqoriy tuzlar ishtirokida EFK tarkibidagi ftorni cho'ktirish usulida tozalash va ftorsizlantirilgan EFKni fosforli mineral o'g'itlarga, ozuqabop fosfatlar va ftorli tuzlariga qayta ishlash, ya'ni chiqindisiz texnologiya bo'yicha qayta ishlash mumkin.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent kimyo-texnologiya instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish qo'mitasining chora-tadbirlariga asosan (O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining) 11-X-sonli «Qishloq xo'jaligida keng miqyosda foydalanish uchun ekologik toza ftorsizlantirilgan

fosforli o'g'it ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi xo'jalik shartnomasi (2011-2012 yy.), Termiz davlat universitetining A-12-77-raqamli «Ekstraksion fosfat kislotasini ftorsizlantirib, natriy kremneftorid va ammoniy ftorid olish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihasi (2015-2017 yy.), 6-099 – raqamli «Markaziy Qizilqum ekstraksion fosfat kislotasi asosida toza natriy va ammoniyning fosfatli va polifosfatli tuzlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish» mavzusidagi amaliy loyihasi (2013-2015 yy.), va Toshkent kimyo-texnologiya institutining FZ-2019081644 – raqamli «Baliqchilik sanoati uchun ammosga muqobil fosforli va azot-fosforli mineral, ozuqa qo'shimchalarini ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish» amaliy loyihasi (2020-2023 yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Markaziy Qizilqumning yuvib kuydirilgan fosfor konsentratidan olingan ekstraksion fosfat kislotasini ftorsizlantirishda bir vaqtda silikatni siklga qaytarib Na_2SiF_6 , $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$, NaF , CaF_2 ni sintez qilish hamda Na_2SiO_3 va Na_2HPO_4 eritmalarini olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

texnologik sharoitlarni keng oraliqda o'zgartirib Na_2SO_4 , Na_2CO_3 , Na_2HPO_4 lari bilan MQ YuKFKdan olingan EFKni tozalash kimyosining tadqiqoti;

kremniy birikmalari me'yoriga bog'liq holda Na_2SO_4 , Na_2CO_3 va Na_2HPO_4 bilan EFKni ftordan tozalash jarayonining tadqiqoti;

olingan suspenziyaning qattiq va suyuq fazalarini ajratishning maqbul texnologik omillarini aniqlash;

texnologik sharoitlarning keng oraliqda o'zgartirish va Na_2SiF_6 ga NaOH ni ta'sir ettirib NaF olish;

Na_2SiF_6 ni ishqoriy gidrolizlab va natriy ftoridni ajratib olgandan so'ng hosil bo'lgan eritmadan kalsiy ftorid va Na_2SiO_3 eritmasini olish jarayonining maqbul sharoitlarini aniqlash;

FFChni kislota-termik parchalab, ftorli gazlarni Na_2CO_3 , NaOH yoki NH_4OH bilan absorbsiyalab, ftorli tuzlar olish jarayonini tadqiq qilish;

EFK tarkibidagi past polimerlangan natriy polifosfatni yuvib, EFKni ftordan tozalash bosqichiga beriladigan Na_2HPO_4 ni olish jarayonining tadqiqoti;

ishlab chiqarish model qurilmasida EFKni tavsiya etilgan tozalash usuli bo'yicha sinovdan o'tkazish;

EFKni tozalash, EFKni tozalashning moddiy oqimi, iqtisodiy samarasi va u asosida ftorsizlantirilgan ammos hamda bir vaqtning o'zida Na_2SiF_6 , NaF , CaF_2 va Na_2SiO_3 eritmasini ishlab chiqarishning texnologik sxemasini yaratish.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida MQ YuKFK, EFK, fosforkislotali bo'tqa, Na_2SiF_6 , natriy va kalsiy ftoridlari, Na_2SiO_3 eritmasi, gazzimon ammiak, ftorsizlantirilgan ammos, ozuqabop monoammoniyfosfat olingan.

Tadqiqotning predmeti EFKni ftordan tozalash, EFKni ftorsizlantirish va Na_2SiF_6 , $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$, NaF , CaF_2 , NH_4F , Na_2SiO_3 va ftorsizlantirilgan fosforli o'g'itlar va monoammoniyfosfat olish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida kimyoviy (fotokolorimetrik, titrimetrik, kompleksometrik, gravimetrik) va fizik-kimyoviy (rentgenografik, IQ-

spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopiya) hamda tajriba ma'lumotlarini statistik qayta ishlash usullaridan foydalanilagan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

MQ YuKFKdan olingan EFKni texnologik omillarga bog'liq holda 6F:2Na nisbatda ishqoriy metall tuzlari yordamida ftorsizlantirish jarayoni ishlab chiqilgan; ilk bor SiO₂:F ning turli nisbatlarida ftorsizlantirish, ishqorsizlantirish darajalariga va EFK tarkibiga texnologik omillarning ta'siri qonuniyatlari aniqlangan;

ftordan tozalangan EFKdan qattiq Na₂SiF₆ ni ajratib olishning asosiy texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan;

Na₂SiF₆ ni NaOH bilan gidrolizlash, NaF ni Na₂SiO₃ dan ajratish, NaF qoldiqlaridan qo'shimcha tozalash va CaF₂, Na₂SiO₃ eritmalarini olish jarayonlarining asosiy texnologik ko'rsatkichlari aniqlangan;

texnologik ko'rsatkichlarga bog'liq xolda 0,02-0,04 kg/t miqdorida sirt faol moddalar – PAA qo'llanilganda, FFChning quyuyqlashish va filtrlash tezligi mos ravishda 2,3-8,0 va 1,7-1,9 marta ortishi isbotlangan;

konsentrlangan ftorid tuzlari va natriy fosfat suyuqlanmasini olish bilan texnologik ko'rsatkichlarning keng oraliqdagi o'zgarishida FFChning kislotali-termik parchalanish jarayonining maqbul sharoitlari aniqlangan;

ilk bor EFKni ftorsizlantirish jarayonida hosil bo'lgan FFChni kislotali-termik parchalanishining kinetik xususiyatlari keng oraliqli o'zgarishlarda aniqlangan hamda jarayonning tezlik doimiyliklari va faollashuv energiyalari hisoblab chiqilgan;

natriy fosfat suyuqlanmasini EFK eritmasiga o'tkazib olishning maqbul sharoitlari aniqlangan va EFK ni ftorsizlantirishda sirkulyatsion aylanma eritma sifatida foydalanish uchun kislotaga o'tkazilgan natriy fosfat eritmasi olingan;

ftorli tuzlar va Na₂SiO₃ olish bilan FFChni EFK bilan kislotali-termik parchalash natijasida ajralib chiqqan ftorli gazlarni (HF, SiF₄) natriy, ammoniy gidroksidlari va natriy karbonat eritmalarini bilan absorbsiyalash yordamida tozalash usuli ishlab chiqilgan;

MQ YuKFKdan olingan EFKni ftorsizlantirish uchun tashqaridan reagent qo'shmasdan natriy silikat va fosfat eritmalarini siklga qaytarish orqali ftorsizlantirilgan ammos, monoammoniyfosfat, ftorli tuzlar va natriyning silikat hamda fosfatli eritmalarini olishning texnologik sxemalari, moddiy balanslari va ishlab chiqarishning texnologik rejim me'yorlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

EFKni kislotada eriydigan kremniyli – Na₂SiO₃ ishtirokida natriy va kaliy tuzlari bilan ftorsizlantirish hamda Na₂SiF₆ ni ishqoriy gidrolizlab natriy ftorid va silikatlariga qayta ishlash texnologiyasi ishlab chiqilgan;

FFChni kislotali-termik ishlov berib natriy fosfat va silikat, so'ngra toza natriy fosfat olish va ajralib chiqqan ftor gazlarini natriy karbonat, natriy va ammoniy gidroksid eritmalarini bilan ushlab qolish qolish usuli ishlab chiqilgan;

natriy silikat va fosfat eritmalarini siklga qaytarish orqali EFKni ftorsizlantirish texnologiyasining tajriba sinovlari o'tkazilgan, shuningdek «Elektrokimyozavod» QK-AJda ftorsizlantirilgan ammosfos, ftorli tuzlar va Na_2SiO_3 eritmasi tajriba namunalari olingan;

bir texnologik tizimda Na_2SiO_3 ni siklga qaytarish va qo'shimcha ftorli tuzlar olish bilan MQ YuKFKdan tozalangan EFK ishlab chiqarishning kombinatsiyalashgan sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotning xulosalari va tavsiyalarining asoslanganligi, olingan moddalarni identifikatsiyalashda zamonaviy, yuqori informatsion fizik-kimyoviy usullari (rentgenografik, IQ-spektroskopik, skanerlovchi elektron mikroskopiya) va kimyoviy tadqiqotlardan foydalanilganligi va ishlab chiqilgan EFKni ftorsizlantirib, fosforli o'g'itlar va ftorli tuzlar olish texnologiyasi, ularning qo'llanishi tajriba-sanoat sinovlarida aprobatsiya qilingan hamda ishlab chiqarishga qo'llanilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishqoriy metallar tuzlarini qo'llash bilan EFKni ftorsizlantirish, ishqorsizlantirish darajasini oshirish, texnologik ko'rsatkichlarni yaxshilash orqali oraliq mahsulotni gidrolizlash va ftorli gazlarni ishqoriy eritmalarini bilan tutib qolish orqali ftor miqdorini maksimal kamaytirish kabi texnologik omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning nazariy asoslari ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, ftorsizlantirilgan EFK olishning ishlab chiqilgan samarali texnologiyasi bir vaqtning o'zida sanoat uchun natriy kremneftorid, natriy, kalsiy va ammoniy ftoridlari hamda qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yuqori iqtisodiy samara va qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan o'g'it va ozuqabop toza ammoniyfosfat tuzlarini olishga, shuningdek, kimyoviy mahsulotlarni mahalliyashtirishga hamda Respublikamizning ekologik sharoitini yaxshilashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. MQ YuKFKdan olingan EFKni ishqoriy metall tuzlari bilan ftorsizlantirish texnologiyasini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

Na_2SiO_3 siklga qaytarish orqali MQ YuKFK olingan EFKni ftorsizlantirib, ftorsizlantirilgan EFK va Na_2SiF_6 ishlab chiqarish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ da ftorsizlantirilgan EFK ishlab chiqarishda amaliyotda qo'llanilgan («Elektrokimyozavod» QK-AJning 2024 yil 1 maydagi 49-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ftorsizlantirilgan EFK va uning asosida ammosfos, ozuqabop monoammoniyfosfat hamda Na_2SiF_6 olish imkonini bergan.

EFKni ftorsizlantirib olingan ftorfosfatli cho'kmani ishqoriy gidrolizlab NaF, CaF_2 va Na_2SiO_3 eritmasini olish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ da amaliyotga joriy etilgan («Elektrokimyozavod» QK-AJning 2024 yil 1 maydagi 49-sonli ma'lumotnomasi). Natijada ftorfosfatli cho'kmadan natriy, kalsiy ftoridlari va natriy silikat eritmasi olingan, ulardan oxirgisi EFKni ftorsizlantirish bosqichiga qaytarilib, shu asosida tashqaridan kislotada eriydigan kremniy birikmalarini qo'shmasdan yopiq sikl yaratish imkonini bergan.

ftorfosfatli cho‘kmani kislotali termik parchalab, ftorli tuzlar va natriy fosfat ishlab chiqarish texnologiyasi «Elektrokimyozavod» QK-AJ da amaliyotga joriy etilgan («Elektrokimyozavod» QK-AJning 2024 yil 1 maydagi 49-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, ftorli gazlarni absorbsiyalash orqali natriy, ammoniy va kalsiyning ftorli tuzlari va ftorsizlantirish bosqichiga qaytariladigan natriy fosfat eritmasini olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 25 ta respublika ilmiy - amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 46 ta ilmiy ish chop etilgan. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan chop etish tavsiya etilgan jurnallarda 15 ta ilmiy maqola, jumladan 6 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jurnallarda doktorlik dissertatsiyalari natijalari nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 200 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida ishning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari ko‘rsatilgan, tadqiqot ob’ekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning ustuvor yo‘nalishlarga muvofiqligi, tadqiqotning dunyo va respublika ilm-fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga muvofiqligi ko‘rsatilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati keltirilgan, ishlab chiqarishga joriy qilingan, chop etilgan maqolalar va dissertatsiyaning tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Ftorli birikmalar va ftorsizlantirilgan fosforli o‘g‘itlar ishlab chiqarish sohasidagi hozirgi holat**» nomli **birinchi bobida** adabiyotlar sharhi keltirilgan bo‘lib, unda fosfatli va ftorli xomashyoning zaxiralari, xususiyatlari va qo‘llanilish sohasi, ekologik jihatlari berilgan. Fosfat xomashyosini qayta ishlashda ftorning tarqalishi va ftor birikmalarini ajratish usullari to‘g‘risida ma’lumot berilgan. Ftorli tuzlarni EFKdan ajratishni asoslaydigan fizik-kimyoviy tizimlar haqidagi bilimlar chuqur tahlil qilindi. EFKni ftorsizlantirib, ftorsizlantirilgan fosforli o‘g‘itlar va natriy, kalsiy, ammoniylarning ftorli tuzlarini ishlab chiqarishning asosiy usullari batafsil o‘rganildi.

Ilmiy adabiyotlar tahlili MQ YuKFKdan olingan EFKni tozalab va shu asosda turli xil foydali mahsulotlarni olish texnologiyasini yaratish zarurligini tasdiqlaydi.

Dissertatsiyaning «**Ekstraksiyon fosfat kislotasini ftorsizlantirishning fizik-kimyoviy jarayonlarini o‘rganish**» nomli **ikkinchi bobida** tadqiqot ob’ektlarning xarakteristikalarini, tajriba va sinovlarda qo‘llaniladigan tahlil usullari berilgan, hamda MQ YuKFKni sulfat kislotali parchalanishi asosida EFKni ftordan tozalash jarayonlari keltirilgan. Tadqiqot ishlarida quyidagi tarkibdagi EFK ishlatilgan, og‘ir.%. P_2O_5 - 21,05; CaO - 0,25; MgO - 0,94; Al_2O_3 - 1,13; Fe_2O_3 - 1,10; F - 1,23;

SO₃ - 3,57; R₂O - 0,17; SiO₂ - 0,18. Ftorni Na₂SiF₆ shaklida cho'ktirishda Na₂SO₄; Na₂HPO₄, Na₂CO₃ va Na₂SiO₃ tuzlari ishlatilgan.

Tajribalar silindrsimon kvarts shisha reaktorida o'tkazildi, reaktor ichida aralastirgich joylashgan bo'lib, 70°C haroratda tajriba 45 daqiqa davomida olib borildi, olingan qattiq fazani 30°C haroratda ikki soat davomida cho'ktirildi.

Na₂SiF₆ ni Na₂SO₄, Na₂HPO₄ va Na₂CO₃ lar bilan cho'ktirishda ularning me'yori 2Na:6F nisbatga nisbatan hisoblab chiqildi. Na₂SiF₆ hosil bo'lishi uchun ftorsizlantiruvchi reagentlarning me'yori (N,%) stexiometrik miqdorga nisbatan 100-200 % oralig'ida olib borildi.

Na₂SO₄ va Na₂HPO₄ me'yorining ftorsizlanish darajasi va EFKni kimyoviy tarkibiga ta'siri tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Ftorsizlantirilgan EFK tarkibining natriy tuzlari me'yoriga bog'liqligi

N, %	Tozalangan EFK tarkibi, miq. %											
	Cho'ktiruvchi reaktiv – Na ₂ SO ₄			γ _{ftors.} , F, %	Cho'ktiruvchi reaktiv – Na ₂ HPO ₄			γ _{ftors.} , F, %	Cho'ktiruvchi reaktiv – Na ₂ CO ₃			γ _{ftors.} , F, %
	P ₂ O ₅	F	Na ₂ O		P ₂ O ₅	F	Na ₂ O		R ₂ O ₅	F	Na ₂ O	
100	20,98	0,817	0,607	32,43	21,76	0,758	0,575	37,30	20,97	0,804	0,360	33,03
120	20,92	0,806	0,730	33,34	21,85	0,740	0,695	38,79	20,93	0,793	0,416	33,88
140	20,87	0,776	0,843	35,81	21,93	0,725	0,816	40,02	20,88	0,783	0,502	34,73
160	20,82	0,751	0,958	37,88	22,02	0,719	0,940	40,53	20,84	0,763	0,611	36,42
180	20,76	0,733	1,076	39,38	22,10	0,715	1,066	40,87	20,77	0,742	0,739	38,12
200	20,70	0,722	1,196	40,29	22,19	0,708	1,189	41,44	20,72	0,733	0,836	38,96

Cho'ktiruvchi sifatida Na₂HPO₄ ishlatilganda Na₂SO₄ ga nisbatan ftorsizlanish darajasi yuqoriroq bo'ladi. Chunki cho'ktiruvchi reaktiv tarkibida fosfat ionlari mavjudligidadir. Bir vaqtning o'zida Na₂HPO₄ qo'llaganda P₂O₅ miqdori 21,76 dan 22,19% gacha oshadi, Na₂SO₄ va Na₂CO₃ qo'llaganimizda 20,98 dan 20,70 % gacha va 20,07 dan 19,61 % gacha mos ravishda kamayadi. EFKlarni ftordan tozalash uchun Na₂SO₄, Na₂HPO₄ va Na₂CO₃ dan foydalanganda natriyning me'yori natriy oksidiga nisbatan hisoblanganda ftorsizlantirilgan kislotada 0,607 dan 0,722 % gacha; 0,758 dan 0,708 % gacha; 0,804 dan 0,733 % gacha mos ravishda ortadi.

Ftorsizlantirish jarayonining kinetikasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, cho'ktiruvchi sifatida Na₂SO₄ va Na₂HPO₄ ishlatilganda, kislotada qolgan ftorning ulushi mos ravishda 10 daqiqada 0,806 - 0,771 %, 30 daqiqada 0,776 - 0,738 % va 60 daqiqada 0,756 - 0,717 % oralig'ida bo'ladi.

EFKni ftorsizlanish darajasiga jarayonning harorati sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Haroratning ortishi bilan EFKni ftorsizlanish darajasi ortadi, bu natriy tuzlarining Na₂SiF₆ bilan kimyoviy ta'sirlashish tezligining ortishi bilan izohlanadi.

Cho'ktiruvchi sifatida Na_2SO_4 ishlatilganda harorat 20 dan 80°C gacha oshganda EFKni ftorsizlanish darajasi 34,58 dan 37,73 % gacha, ishqorsizlanish darajasi -664 dan -647 % gacha ortadi. Cho'ktiruvchi sifatida Na_2HPO_4 qo'llanilganda esa ftorsizlanish darajasini 41,53 dan 44,09 % gacha, ishqorsizlanish darajasini - 631 dan - 610% gacha ortadi. Shunday holat cho'ktiruvchi sifatida Na_2CO_3 ishlatganimizda ham kuzatiladi. So'ngra cho'ktiruvchi me'yoring FFCh kimyoviy tarkibiga ta'siri o'rganildi (2-jadval).

2-jadval

Cho'ktiruvchi reaktiv me'yoring FFCh kimyoviy tarkibiga ta'siri

№	Me'yor, %	Cho'ktiruvchi reaktiv nomi	Kimyoviy tarkibi, og'ir. %					Na_2SiF_6 , og'ir.%
			Na_2O	F	SiO_2	CaO	SO_3	
1	100	Na_2SO_4	31,05	54,19	29,25	3,16	4,29	91,28
2	125		30,05	53,37	28,30	4,11	5,68	89,43
3	150		28,73	49,92	27,02	5,41	7,65	84,38
4	200		25,10	43,27	23,51	9,00	12,77	73,61
5	100	Na_2HPO_4	32,42	60,51	31,86	0,10	0,16	99,48
6	125		32,74	61,20	31,98	0,26	0,57	98,96
7	150		32,66	61,02	31,58	0,36	0,71	98,68
8	200		32,52	60,96	31,46	0,49	0,90	98,28

2-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Na_2SO_4 me'yori ortishi bilan cho'kmadagi $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ning miqdori ortadi, bundan tashqari, cho'ktiruvchi me'yorini har 25 % ga oshirganimizda, SO_3 miqdori nisbiy 4,5 % oshadi, Na_2SO_4 me'yori 200 % bo'lganda bu ko'rsatgich 12,56 % teng.

Cho'ktiruvchi reagentning steoximetrik me'yori 100 % bo'lganda Na_2SO_4 (Na_2SiF_6 - 91,28 %) ga qaraganda Na_2HPO_4 (Na_2SiF_6 - 99,48 %) ishlatilganda cho'kmada Na_2SiF_6 miqdori ko'proq bo'ladi, bu sulfat va kalsiy ionlarining o'zaro ta'sirlashib hosil qilgan gipsning Na_2SiF_6 bilan birga cho'kmaga tushishi bilan izohlanadi.

Cho'ktiruvchi sifatida Na_2CO_3 ishlatilganda ham cho'kma tarkibida Na_2SiF_6 miqdori (99,36 %) yuqori bo'ladi. FFCh fizik-kimyoviy analiz natijalari ham Na_2SiF_6 ga tegishli sohalarini yorqin ko'rsatdi. Bu ko'rsatgichlarni energodispers va IQ-spektroskopik tahlillar ham ko'rsatib turibdi. Ftorsizlanish jarayonining maqbul texnologik ko'rsatgichlari o'rnatildi: N (me'yor) - Na_2SO_4 ; Na_2HPO_4 va Na_2CO_3 - 120-130%, $t_{\text{ftors.}}$ - $60-80^\circ\text{C}$, $\tau_{\text{ftors.}}$ - 30-45 daqiqa, $t_{\text{erit. tin.}}$ - $25-30^\circ\text{C}$, $\tau_{\text{erit. tin.}}$ - 20 daqiqadan kam emas.

Biroq, yuqorida keltirilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, Na_2SO_4 , Na_2HPO_4 va Na_2CO_3 lar bilan MQ YuKFKdan olingan EFKni ftorsizlanish darajasi nisbatan past va natriy tuzlarining me'yori 200 % bo'lganda kislotada qolgan ftorning miqdori 0,71 % dan kam bo'lmas ekan. Ftorni cho'ktirish darajasining pastligiga sabab,

dastlabki EFK tarkibida kislotada eriydigan kremniyning miqdorini kamligi, ya'ni uning miqdori 0,13 % dan oshmaydi. Bu ftor ionlarini Na_2SiF_6 holida bog'lash uchun yetarli emas.

Shuning uchun keyingi tadqiqotlarimizda ftorsizlanish darajasini oshirish va jarayon ko'rsatkichlarini yaxshilash uchun cho'ktiruvchi sifatida kislotada eriydigan shakldagi SiO_2 va Na_2SiO_3 dan foydalanildi. SiO_2 me'yori 6F: SiO_2 nisbatga muvofiq olingan. SiO_2 ning umumiy miqdori Na_2SiF_6 ni hosil qilishga nisbatan hisob qilingan.

Texnologik ko'rsatkichlar SiO_2 qo'shilmagandagi tajribalar bilan bir xil olindi. Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, SiO_2 ishtirokida (6F: SiO_2 – 100 %) Na_2SO_4 va Na_2HPO_4 larning me'yori 100 dan 140 % gacha oshirilganda ftorsizlanish darajasi 53,65 va 53,21 dan 80,28 va 81,10 % gacha mos ravishda ortadi (3-jadval).

3-jadval

SiO_2 ishtirokida natriy tuzlarining umumiy miqdorining ftordan tozalangan EFK tarkibiga ta'siri

ΣN , %	Tozalangan EFK tarkibi, miq. %									
	Cho'ktiruvchi reaktiv – Na_2SO_4			γ_F , % nis.	γ_{Na} , % nis.	Cho'ktiruvchi reaktiv – Na_2HPO_4			γ_F , % nis.	γ_{Na} , % nis.
	P_2O_5	F	Na_2O			P_2O_5	F	Na_2O		
100	20,968	0,556	0,463	53,65	-290	21,714	0,561	0,319	53,21	-168
120	21,002	0,283	0,444	76,48	-303	21,909	0,263	0,330	78,12	-178
130	20,983	0,248	0,489	79,38	-312	21,961	0,237	0,404	80,30	-240
140	20,955	0,238	0,546	80,28	-360	22,006	0,228	0,458	81,10	-286
160	20,897	0,225	0,667	81,28	-462	22,095	0,213	0,585	82,30	-393
180	20,841	0,208	0,784	82,68	-561	22,184	0,197	0,712	83,71	-499
200	20,783	0,196	0,904	83,68	-662	22,272	0,182	0,834	84,90	-603

Cho'ktiruvchi komponent me'yorining yanada oshirilishi ftorsizlanish darajasini mos ravishda 80,28 va 81,10 dan 83,68 va 84,90 % gacha biroz oshishiga olib keladi. Na_2HPO_4 qo'llaganda EFKni ftorsizlanish darajasi nisbatan ko'proq ortadi. Na_2SO_4 va Na_2HPO_4 larning me'yori 110 dan 160 % gacha oshirilganda u mos ravishda 53,65 dan 81,28 gacha va 53,21 dan 82,30 % gacha ortadi. EFKni ftorsizlanish darajasi Na_2HPO_4 qo'llanilganda Na_2SO_4 ishlatilgandagiga nisbatan o'rtacha 1,40 % ga ko'proq. EFK tarkibidagi P_2O_5 miqdorining ortishi SiO_2 ishtirokisiz jarayon bilan bir xil qonuniyatga asoslangan. Tadqiqot natijalariga ko'ra dastlabki EFK tarkibidagi ftor bilan Na_2HPO_4 va Na_2SO_4 ta'sirlashish vaqti o'rganilganda, ftorning asosiy qismi 30 daqiqa ichida reaksiyaga kirishib, Na_2SiF_6 holida bog'lanar ekan. Umumiy miqdoriga nisbatan olinganda Na_2SO_4 qo'llanilganda 78,70 % va Na_2HPO_4 - 79,43 % ftor bog'lanadi. Na_2SiO_3 ishtirokida EFKni Na_2CO_3 bilan ftorsizlantirilganda ham xuddi shunday qonuniyat kuzatiladi.

EFKni ftorsizlanish va ishqorsizlanish jarayoniga komponentlarning kimyoviy o‘zaro ta’sirlashish haroratining ta’siri katta ahamiyatga ega. Dastlabki EFKning Na_2SO_4 va Na_2HPO_4 bilan kimyoviy reaksiyasi haroratini 20 dan 80°C gacha oshirilganda, ftorsizlanish darajasi mos ravishda 74,67 dan 81,78 % gacha va 76,18 dan 82,08 % gacha ortadi. Haroratning oshishi bilan bu ko‘rsatgichlarni oshishi kinetik qonuniyatlar bilan izohlanadi. Haroratni ortishi va ta’sir etuvchi reagentlarni shiddatli aralashtirish natijasida kimyoviy jarayonning tezligi ortadi. EFKni SiO_2 ishtirokida natriy tuzlari bilan ftorsizlantirish davrida jarayonning aralashtirish davomiyligi va haroratga ta’siri, harorat va suspenziyaning cho‘kish vaqti EFKni ftorsizlanish darajasiga bog‘liqligi o‘rganildi va ularning maqbul sharoitlari aniqlandi.

Tadqiqotlarda Na_2SiO_3 miqdori (me’yori) Na_2SiF_6 hosil bo‘lishiga nisbatan hisob qilindi, natriyli tuzlarning umumiy me’yori esa ($\text{Na}_2\text{CO}_3 + \text{Na}_2\text{SiO}_3$) – 100-200 % olindi, HF ni bog‘lash uchun Na_2SiO_3 – 100-105 % me’yorda olindi. Na_2SiO_3 olish uchun SiO_2 ning har qanday miqdorida natriy ionlarining umumiy me’yori 100 dan 140 % gacha oshirilganda, EFKni ftordan tozalash darajasi 100; 120 va 140 % umumiy me’yorlarda mos ravishda 63,47 dan 65,37 gacha, 61,75 % dan 78,03 % gacha va 76,58 dan 73,82 % gacha ortadi.

Ishqorsizlanish darajasining o‘zgarishi ham o‘xshash, uning ko‘rsatgichi natriy ionlarining umumiy me’yori 100 % bo‘lganda ishqorsizlanish darajasi mos ravishda -51,35; -42,42; -53,81 % dan -356,61; -361,47; -367,81 % gacha tez kamayadi. Bu qonuniyatning sababi EFKni NaOH bilan kimyoviy ta’sirlashishi natijasida natriy ionlarining konsentratsiyaning oshishidir. Natriy ionlarining umumiy me’yorining ortishi kislotada tarkibida P_2O_5 , F va Na_2O lar miqdorining sezilarli darajada oshishiga olib kelmaydi. Bunda EFK ftorsizlanish darajasi deyarli bir xil bo‘lib, ishqorlanish darajasining keskin o‘sishi davom etadi. Masalan, natriy ionlarining umumiy me’yori 140 dan 200 % gacha ortishi bilan mos ravishda ishqorlanish darajasi -134,18; -136,3; -141,34% dan -356,61; -361,47; -367,81 % gacha kamayadi.

Na_2SiO_3 miqdori stexiometrik me’yordan oshganda ftorsizlanish darajasi kamayishi mumkin. Bu EFKning Na_2SiF_6 bilan to‘yinishini ortib borishiga bog‘liq. Bu holda juda kichik zarrachali cho‘kma hosil bo‘lib, ikki soatda ham to‘liq cho‘kmaydi. Na_2SiO_3 me’yorini ortishi bilan cho‘kma gelsimon holatda hosil bo‘ladi, uni esa qiyinchilik bilan ajratib olinadi.

Yuqorida keltirilgan omillar Na_2SiO_3 miqdorini stexiometrik me’yordan oshirmaslik kerak degan xulosaga olib keladi. Natriy ionlarining umumiy me’yorini 120-140 % etib qabul qilindi.

Na_2SiO_3 ishqoriy eritmasining EFK bilan kimyoviy reaksiyasi davomiyligining ftorsizlanish, ishqorlanish darajasi va EFK tarkibiga ta’sirini aniqlash bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazildi. Jarayon davomiyligining oshishi bilan ftorsizlanish darajasi ortadi, bu komponentlarning kimyoviy reaksiyaga ta’sirlashish vaqtining oshishi bilan izohlanadi. 30 daqiqa ichida kimyoviy reaksiya deyarli tugaydi.

Na_2SiO_3 ning EFK bilan kimyoviy reaksiyasining haroratga bog‘liqligini aniqlash uchun tadqiqot ko‘rsatgichlari quyidagicha: natriy ionlarining me‘yori - 130%, aralashirish davomiyligi - 30 daqiqa, cho‘ktirish davomiyligi - 120 daqiqa, cho‘ktirish harorati - 30°C (4-jadval).

4-jadval

EFK tarkibi, ftordan tozalanish va ishqorlanish darajalariga haroratning bog‘liqligi

№	Harorat, °C	Jarayon bosqichi	EFK kimyoviy tarkibi, miq. %			γ_F , % nis.	γ_{Na} , % nis.
			P_2O_5	F	Na_2O		
1	40	Ftorsizlanish darajasi	20,286	0,266	0,343	76,20	-105,22
2	60		20,300	0,226	0,321	79,89	-92,00
3	80		20,306	0,210	0,312	81,39	-86,60
1	20	Cho‘ktirish jarayoni	20,308	0,203	0,308	81,99	-84,43
2	40		20,291	0,252	0,335	77,56	-100,35
3	60		20,231	0,424	0,432	61,67	-157,33

Haroratni 40-80°C oralig‘ida, har safar 50, 60, 70 va 80°C ga oshirilganda ftorsizlanish darajasi bir tekis va doimiy ravishda ortib boradi. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, ftorsizlanishni nisbatan yuqori haroratlarda amalga oshirish maqsadga muvofiqdir va bu tozalanish uchun yetkazib beriladigan EFKni isitish zarurligini bildiradi, ya‘ni qo‘shimcha energiya xarajatlari paydo bo‘ladi. Shu munosabat bilan jarayonni EFKdan $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ni kristallanishi va cho‘ktirish haroratida 60-70°C da o‘tkazishni tavsiya qilish mumkin.

Natriy ionlari me‘yori -130%, cho‘ktirish harorati - 30°C bo‘lganda EFKning tarkibi va ftorsizlanish darajasini cho‘ktirish jarayonining davomiyligiga bog‘liqligini aniqlash bo‘yicha tajribalar o‘tkazildi. EFKni ftorsizlantirishda eng qiyin jarayonlardan biri Na_2SiF_6 ni ajratib olish hisoblanadi, chunki u kichik kristallar shaklidagi solishtirma yuzasi yuqori darajada rivojlangan zarrachalar shaklida cho‘kadi.

Tindirish va filtrlash jarayonlarini jadallashtirish maqsadida EFK tarkibidagi erkin sulfat kislotasini fosfat xomashyosi bilan o‘zaro ta‘siri natijasida hosil bo‘lgan cho‘kma - $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ qo‘llanildi. Natijada hosil bo‘lgan $\text{CaSO}_4 \cdot 2\text{H}_2\text{O}$ ning kristall zarrachalari nisbatan EFKda mavjud bo‘lgan CaF_2 , $\text{Ca}_5\text{F}(\text{PO}_4)_3$, Na_2SiF_6 va SiO_2 zarrachalariga qaraganda katta o‘lcham va zichlikka ega, shuning uchun ushbu kristallar cho‘kish vaqtida kichik zarralarni bog‘lab cho‘kmaga tushishini tezlashtiradi. Suspenziya 75-80 kPa vakuumda 120 mikron g‘ovaklikdagi Shotta filtrida filtrlangan. Filtrlash davomiyligi cho‘kindi yuzasining ko‘rinishi bilan belgilandi.

Fosforit va natriy tuzlari eritmasi bo'lmaganda dastlabki EFK yuqori tezlikda tiniydi, ammo kislotaning yuqori qismi yomon ajraladi va uzoq vaqt davomida tiniydigan, ko'p miqdorda mayda loyli zarralarni o'z ichiga oladi. EFK:fosforit xomashyosi - 100:(0,6-1,2) massa nisbatlarida SO_3 hosil bo'lishiga stexiometrik me'yorga nisbatan MQ fosforitidan $N_{f.x.}-50\%$ dan qo'shilganda kislotadagi cho'kmay qolgan maulliq zarrachalar tarkibini keskin - deyarli ikki martaga kamaytiradi.

Fosforitsiz fazalarni ajratish juda tez sodir bo'lishiga qaramay, dastlabki EFK tarkibida loyli zarrachalar bilan aralashgan Na_2SiF_6 ning yaxshi filtrlanmagan kichik dispersli cho'kmasi hosil bo'ladi. Cho'kma miqdori 0,2-0,3 % dan oshmasa ham asosiy qismi eritma bir kun va undan ko'proq vaqt davomida loyqa bo'lib turadi. Bunday cho'kmaning tezligi $110,12 \text{ kg/m}^2 \cdot \text{soat}$ dan oshmaydi. Natriy fosfat va silikat eritmaları bilan birga SO_3 ni bog'lash uchun stexiometrik me'yor bo'yicha MQ fosfat xomashyosidan 75-100 % qo'shilsa, ftorsizlanish darajasi nisbatan 7-10 % va sulfatsizlanish 70-90 % gacha ortadi. Fosforit qo'shilmaganga nisbatan fosforit qo'shilganda filtratsiya tezligi 1,5 marta ortadi. Suspenziyadagi S:Q fazalar nisbati (16,5-14,1):1 bo'lishiga qaramay, suyuq faza shaffof, loyqa saqlamaydi. Quyqa qismining maqbul S:Q fazalar nisbati (7,0-7,4):1 ga teng bo'lib, cho'kmani qo'shimcha ishlov bermasdan natriy fosfat eritmasiga va konsentrlangan ftorli gazlarga qayta ishlash imkonini beradi.

Jarayonning kinetikasini o'rganish shuni ko'rsatadiki, bir xil sharoitda $\Sigma Na_2O:\Sigma F$ 0,4:1 dan (1,5-2):1 gacha oshirganimizda cho'kmani bir vaqtning o'zida zichlashishi bilan filtrlanish tezligi sezilarsiz ortadi. Dekantatsiya va filtrlash jarayonining yaxshilanishi cho'kma tarkibidagi Na_2SiF_6 miqdorini oshishi bilan tavsiflanadi, u yaxshi mikrogranulametik xususiyatlariga ega hisoblanadi.


Haroratning qattiq fazani cho'kish tezligiga ta'sirini o'rganish shuni ko'rsatdiki, haroratni 20-50°C oralig'ida o'zgarishi bilan natriyning fosfat va silikat eritmaları ishlatilganga qaraganda tezligi nisbatan ozroq oshishi kuzatiladi. Harorat 50°C da qattiq fazaning katta qismi birinchi 35-40 daqiqada, 20°C da – 2,3-2,8 soatda cho'kadi. Ftorsizlanish va sulfatsizlanish darajalari mos ravishda 75-89 va 70-95 % bo'lganda qattiq faza hosil bo'lishining maksimal tezligi 3 m/soat kuzatiladi. Biroq, maqbul texnologik ko'rsatgichlarda ham EFK ftorsizlantirish jarayonida hosil bo'lgan qattiq fazaning cho'kish tezligi 2,0 m/s yuqori emas, bu tindirgichning yuzasi va hajmining oshishiga va jarayon samaradorligining pasayishiga olib keladi.

Qattiq fazalarni cho'ktirish jarayonini maqsadga muvofiq usullaridan biri bu sirt faol moddalarni (SFM) qo'llashdir, ularning ta'siri polimer va qattiq faza molekulari orasidagi adsorbsion jarayon bo'lib, natijada katta massa va kichikroq hajmli zarralar paydo bo'ladi, bu fazalarni ajratish tezligini oshiradi.

Yuqoridagilar asosan quyida quyqani SFM ishtirokida, bir vaqtning o'zida ma'lum bir miqdorda fosforit qo'shib Na_2HPO_4 (yoki Na_2CO_3) bilan EFKni ftorsizlantirish va sulfat ionlaridan tozalash bo'yicha tadqiqot natijalari keltirilgan.

Tadqiqot tajribalari shuni ko'rsatdiki, qo'shimchalar sifatida flokulyatsion vositalardan foydalanish samarali hisoblanadi, kislotali muhitda barqaror bo'lgan shunday polimerlardan poliakrilamid (PAA), elektrod sanoatining sulfatlangan mahsulot chiqindisi (SM-ESCh) va uning monometanolamin bilan tuzlari (SM-ESCh-MEA) bo'lib, ular ichida samaradorligi yuqori bo'lgani PAA hisoblanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra cho'kmaga tushishning dastlabki tezligi har xil S:Q fazalar nisbatlarda va turli SFM w ning D ga (S:Q) bog'liqligi ko'rilgan. Ko'rsatgich D_z (ko'rsatgich S:Q quyuuq qismida) maksimal cho'ktirish maydoni hisoblash quyidagi formula bo'yicha $F_{\max} = \frac{D_i - D_z}{w_s}$, 1-rasmda ko'rsatilganidek, grafik usul bilan topilgan.



1-rasm. Suspenziyadan qattiq fazani cho'ktirish S:Q faza nisbati va SAM turiga bog'liqligi. 1-SFMsiz; 2-PAA; 3-SM-MSCh-MEA; 4-PAA- SM-MSCh-MEA (1:1).

fazalar nisbatini (5,2-6,2):1 gacha o'zgartiradi. Ftorsizlantirilgan quyqaning fizik-kimyoviy xususiyatlarini va filtrlash jarayonining ko'rsatgichlarini o'rganish, EFKni tozalash vaqtida hosil bo'lgan quyqaning zichligi va qovushqoqligini tadqiq qilish shuni ko'rsatdiki cho'kma (α_T) miqdorining ortishi bilan, turli haroratlarda quyqaning zichligi keskin ortadi.

S:Q = 25:1 bo'lganda S:Q fazalar 3:1 bo'lganga nisbatan 91-158 kg/m³ kam. Qattiq fazaning ulushi 3,85 dan 25 % gacha o'sishi bilan suspenziyalarning qovushqoqligi deyarli to'g'ri chiziq bo'ylab o'zgaradi.


Cho'ktirish jarayonida SFMlarning qo'shilishi turli SFM uchun cho'ktirish tezligini 1,7 dan 4,9-14,6 m/soatgacha keskin oshirish va o'ziga xos cho'kma yuzasini 2,5-6,8 barobar kamaytirish imkonini beradi.

PAA va SM-ESCh-MEA qo'llanilganda eng yaxshi natijalarga erishildi, qo'shimcha suspenziya tarkibidagi $F_{\text{cho'k}}$ 4,14 dan 0,61 gacha va 4,14 dan 0,76 m²·s/t mos ravishda kamaytiradi.


PAA, SM-ESCh-MEA va PAA- SM-ESCh-MEA 2-3,5 mg/l miqdorda qo'shimchalar qo'shilganda qattiq fazaning cho'kishini 2,8-8,6 marta oshiradi cho'kish yuzasini 2,5-6,8 marta kamaytiradi quyuuq massadagi S:Q

Haroratning 20 dan 50°C gacha ortishi η ni (2-5) MPa s kamayishiga olib keladi. Tenglama asosida $\gamma_{cho'k} = \frac{2\Delta P(1-mX)}{K\mu X}$ tadqiqot natijasida olingan $\gamma_{cho'k}$ qiymatlari 2 va 3 rasmlarda o'z ifodasini topgan.

Xuddi shu sharoitda SFMSiz suspenziyalarni filtrlashda qattiq fazaning qarshiligi maksimal cho'kma miqdoriga bog'liq bo'lib, ularning ko'payishi 4,80 dan 15% gacha turli xil qarshilikni uch marotabadan ko'proq pasayishiga olib keladi. Bu ko'rsatkich 25% ga oshirilganda, bog'liqlik bir muncha kamayishiga olib keladi $\eta_{cho'k}$ va ΔP gacha (20-7) $\cdot 10^6$ kg/m. Bosim farqi va cho'kindi qatlamining balandligi oshishi bilan suspenziyadagi S:Q fazalar nisbatining ta'siri qattiq faza tarkibining funksiyasi saqlanib qoladi.



2-rasm. Cho'kmaning solishtirma qarshiligining qatlam balandligiga va quyqadagi cho'kma miqdoriga bog'liqligi. ΔP – 40 kPa.



3-rasm. Suspenziyadagi qattiq faza tarkibi va PAA ni cho'kindining solishtirma qarshiligiga ta'siri. ΔP , kPa: 1 – 40, 2 – 80.

Cho'kma qatlamining balandligi va doimiy texnologik ko'rsatkichlarning oshishi bilan solishtirma qarshilik kuchayadi. Ammo shu bilan birga, cho'kma qatlami balandligining o'zgarishiga mutanosib bo'lmagan $\eta_{cho'k}$ ning ortishi kuzatiladi. Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, EFKni sulfatsizlantirish va ftordan tozalash natijasida olingan qattiq faza past siqilishga ega.

Filtrlashdan oldin suspenziyaga PAA qo'shish $\gamma_{cho'k}$ kamayishiga, ayniqsa, ΔP ko'tarilganda yanada kamayishiga olib keladi (2-rasm). PAA konsentratsiyasini 0 dan 3,5 mg/l gacha oshirsak fazalar nisbati S:Q = 7:1 bo'lganda $\gamma_{cho'k}$ ning kamayishiga olib keladi. Qiymalari $\Delta P = 40$ kPa va $h_{cho'k} = 10$ mm bo'lganda 39,3 dan 35,1 $\cdot 10^6$ kg/m gacha, $\Delta P = kPa$ bo'lganda 36,9 dan 9,4 $\cdot 10^6$ kg/m gacha, ya'ni 4 martagacha kamayadi. Qattiq faza konsentratsiyasining pasayishi bilan PAA ta'siri kuchayadi va ayniqsa bosim farqining oshishi bilan seziladi. PAA

konsentratsiyasining 3,5 dan 7,0 mg/l gacha oshishi bilan $\gamma_{\text{cho'k}}$ ning kichik o'zgarish PAAning maqbul konsentratsiyasi mavjudligini ko'rsatadi, bunda cho'kmaning solishtirma qarshiligi minimal qiymatga yetadi. Qo'shimcha ravishda PAA miqdorining oshirilishi filtrlash jarayonini tezlashtirmaydi. PAA konsentratsiyasining oshishi bilan salbiy qiymatga ega bo'lgan siqilish koeffitsienti pasayadi. Bu bosimning farqi katta bo'lganda va filtrlash unumdorligi yuqori bo'lganda ΔP ortishi bilan cho'kmaning kamroq siqilishini ko'rsatadi.

Shunday qilib, qo'shimcha MQ YuKFK ishtirokida natriyning silikat va fosfat tuzlari yordamida EFKni ftorsizlanish va sulfatsizlantirish jarayonida hosil bo'lgan suspenziyani filtrlashni o'rganishda jarayonning maqbul texnologik omillari aniqlandi: S:Q nisbati 7:1 kam emas, bosim farqi - ΔP -70-80 kPa, quyqa tarkibidagi PAA - 2,0-3,5 mg/l, filtr materiali ustidagi qattiq faza qatlaminin o'lchami - 0,01 m, ushbu parametrlarga ega filtrlarning ishlab chiqarish quvvati $5-7 \cdot 10^{-4} \text{ m}^3/\text{m}^2$. Olingan ma'lumotlar sanoatda keng qo'llaniladigan an'anaviy filtrlash tizimlaridan foydalangan holda filtrlash orqali suspenziyalarni ajratish jarayonini amalga oshirish imkoniyatini ko'rsatadi.

So'ng, FFCh suspenziyasini filtrlash, quyuqlashtirish, qattiq zarrachalar cho'kishini PAA ishtirokida va ishtirokisiz texnologik omillarga ta'siri o'rganildi. Quyqa qalinlashishi va qattiq fazani filtrlash ko'rsatgichlari cho'ktiruvchi eritmasining tarkibiga va $\text{Na}_2\text{O}:\text{F}$ nisbatiga juda bog'liq. EFKni natriy silikat bilan tozalashda cho'ktirish tezligiga va quyqa filtrlanishiga PAA ishtirokida va ishtirokisiz texnologik omillariga ta'siri to'g'risida olingan ma'lumotlar 5-jadvalda keltirilgan ($N_{\text{Na}_2\text{SiO}_3}$ -100%, $\Delta P = 70-80 \text{ kPa}$, $h_{\text{q.qat.}} - 0,01 \text{ m}$).

5-jadval


EFKni natriy silikat bilan tozalash paytida quyqaning filtrlanish va cho'ktirish tezligiga texnologik omillarning ta'siri ($N_{\text{Na}_2\text{SiO}_3}$ -100%)

Taj. raqami	Na^+ umumiy me'yori, %	Tiniq qatlam balandligi, % nis.	Cho'ktirish tezligi, m/s	Dastlabki suspensziya S:Q nisbati	Quyuc suspensziya S:Q nisbati	100 g EFK nis. cho'kma chiqishi	Filtrlanish tezligi, $\text{kg}/\text{m}^2 \cdot \text{s}$
1	100	81,64	7,266	85,69	7,91	1,32	289,5
2	120	84,57	9,562	71,57	7,54	1,59	320,1
3	140	85,55	10,773	68,53	7,19	1,69	351,9
4	160	86,21	11,725	67,54	6,80	1,71	385,2
5	180	86,48	12,422	67,34	6,40	1,72	412,4
6	200	86,66	12,629	67,19	6,26	1,72	441,2

Quruq cho'kmaga nisbatan hisoblaganda filtr qurilmasining unumdorligi 300-400 $\text{kg}/\text{m}^2 \cdot \text{soat}$ ni tashkil qiladi. Ishlatilgan SFM moddalar ichida samaraliroq va arzoni PAA hisoblanadi, undan foydalanganda (0,02 kg/t) quyultirilgan suspenziyaning filtrlash tezligi o'rtacha 1,6-1,8 marotaba ortadi.

Dissertatsiyaning «**Natriy kremneftoridni natriy va kalsiy ftoridlari va natriy silikatga qayta ishlash jarayonini o‘rganish**» nomli uchinchi bobida FFChni qayta ishlash - Na_2SiF_6 ni ishqoriy (NaOH) gidrolizlab yuqori qo‘shimcha qiymatga ega bo‘lgan NaF , CaF_2 va Na_2SiO_3 eritmasini olish, so‘ngisini sirkulyatsiya qilib EFKning ftorsizlanish bosqichiga qaytarish, shunday qilib kislotada eriydigan kremniy birikmasini siklik ta‘minlash bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Na_2SiF_6 ning ishqorli gidrolizi haroratning ortishi bilan juda tez ketadi, 40-50 °C gidroliz reaksiyasi uchun yetarli hisoblanadi. Bunday harorat Na_2SiO_3 eritmasida NaOH ni eritganda va Na_2SiF_6 ning ishqor bilan ta‘sirlashganda hosil bo‘ladi. Maqbul gidroliz vaqti: 20°C da – 30 daqiqa, 40°C da – 10 daqiqa, 60°C da – 4-5 daqiqa bo‘ladi. Na_2SiF_6 ning asosiy qismi NaOH miqdori stexiometrik me‘yor bo‘lganda gidrolizlanadi (4-rasm). Ortiqcha me‘yorda NaOH (120 % gacha stexiometrik me‘yorga nisbatan) gidroliz darajasini 99,6 % gacha oshiradi va $\text{Na}_2\text{O}:\text{F}$ berilgan nisbatni saqlab turadi.



4-rasm. NaOH me‘yorining fazalar tarkibiga va Na_2SiF_6 gidroliz jarayoni texnologik ko‘rsatgichlariga ta‘siri


45,57 dan 45,24 % gacha mos ravishda kamayadi.

NaF cho‘kmasini yuvishda hosil bo‘lgan Na_2SiO_3 aylanma eritmasini S:Q fazalar nisbatini tutib turish uchun gidroliz bosqichiga qaytarish tavsiya etiladi. Shu munosabat bilan aylanma eritmadagi Na_2SiO_3 konsentratsiyasining gidroliz darajasiga va boshqa texnologik ko‘rsatgichlarga ta‘siri o‘rganildi. Na_2SiO_3 aylanma eritmasi konsentratsiyasi Na_2SiF_6 ning gidrolizlanish darajasiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatmaydi. Na_2SiO_3 eritmasini konsentratsiyasi ortishi bilan gidroliz darajasining biroz pasayishini suyuq muhitning qovushqoqligini ortishi bilan izohlash mumkin. Rentgen fazali tahlil shuni ko‘rsatdiki, Na_2SiF_6 ni NaOH bilan gidrolizlash natijasida tarkibida asosiy moddasi 98 % dan yuqori bo‘lgan NaF olish mumkin.

Me‘yorini 150 % gacha oshirganda gidroliz darajasi juda kam o‘zgaradi, me‘yorni 150% dan yanada oshirganda gidroliz darajasi maksimal darajaga yetadi, ya‘ni – 100 %. Xuddi shunday, NaOH me‘yorining ortishi S:Q fazalar nisbatini 2,78 dan 5,79 gacha, Na_2O ning suyuq fazadagi miqdorini 8,16 dan 18,83 % gacha sezilarli oshiradi, SiO_2 va F larning suyuq va qattiq fazalardagi miqdori 9,10 dan 4,79 % gacha, 0,69 dan 0 gacha va 1,46 dan 1,29 % gacha,

So'ngra, keyingi bosqich - filtrlash jarayonining tezligiga texnologik omillarning ta'siri o'rganildi. Na_2SiO_3 konsentratsiyasini 20 dan 30 % gacha oshirish quruq cho'kmaga nisbatan filtrlash tezligini o'rtacha 24-26 % ga barqaror pasayishiga olib keldi, bu muhitning yopishqoqligi oshishi bilan izohlanadi. Haroratni 20 dan 30 °C gacha oshirilganda quruq cho'kma va eritmaning filtrlanish tezligi mos ravishda 14,75-26,20 va 7,55-27,15 % ortadi. Haroratni yanada 60°C gacha oshirilishi bu ko'rsatgichlarni mos ravishda 35,15-71,09 va 35,20-82,52 % ga oshirdi, bu esa suyuq faza qovushqoqligini kamayishi bilan izohlanadi.

Filtrlash natijasida hosil bo'lgan Na_2SiO_3 eritmasi NaF bilan ifloslangan bo'ladi, uning tarkibi ftorga nisbatan hisoblaganda 1,2-1,6 % ni tashkil etadi. Bunday eritmani ftorsizlantirish uchun jo'natish mumkin, biroq cho'ktiruvchi reagent sarfini kamaytirish uchun uning tarkibidagi ftorni tozalash maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu maqsadda cho'ktiruvchi sifatida kalsiy oksidi yoki gidroksidi ishlatiladi va amalda erimaydigan CaF_2 hosil bo'ladi.



5-rasm. CaO miqdori ftorsizlanish darajasi, Na_2SiO_3 eritmasi va faza tarkibiga ta'siri

Eritmada qolgan ftorni qo'shimcha CaO bilan tozalash tadqiqot natijalari 5-rasmدا keltirilgan. CaO me'yori ortishi bilan Na_2SiO_3 eritmasining ftorsizlanish darajasi ortadi (5-rasm). CaO ning stexiometrik me'yori Na_2SiO_3 eritmasini to'liq ftorsizlantirish uchun yetarli. Stexiometrik me'yorda suyuq fazada atigi 0,01 % ftor qoladi.

CaO miqdorini stexiometrik me'yordan oshirganda cho'kmaga CaSiO_3 tusha boshlaydi, bu oxirgi mahsulot tarkibida CaF_2 miqdorini kamaytiradi. Shuning uchun CaO ning maqbul me'yori etib 95-100 %

qabul qilindi. Harorat, S:Q fazalar nisbati, Na_2SiO_3 eritmasining konsentratsiyasi Na_2SiO_3 eritmasining ftorsizlanish darajasiga amalda ta'sir qilmaydi. CaO o'rganilgan me'yorlari oralig'ida suyuq fazada Na_2O va SiO_2 lar miqdori mos ravishda 22,31-22,37% va 18,12-18,17% ni tashkil etadi, ya'ni qisman ortadi. Na_2SiO_3 eritmasi CaO bilan ftorsizlantirilganda, CaF_2 ning tez cho'kmasi bilan tez cho'kadigan suspenziyasi hosil bo'ladi, quyultirilgan qismida S:Q fazalar nisbati 2:1-3:1 oralig'ida uning cho'kish tezligi 5-7 m/soatga teng. Olingan cho'kma Na_2SiO_3 eritmasidan oson ajraladi, uning quruq cho'kmaga nisbatan filtrlash tezligi 250-300 $\text{kg/m}^2 \cdot \text{soat}$ ni tashkil etadi.

Dissertatsiyaning «**Ftorsizlantirilgan ekstraksion fosfat kislotasini ftorsizlantirishda hosil bo'lgan ftorfosfatli cho'kmani kislotali-termik qayta ishlash jarayonining tadqiqoti**» nomli to'rtinchi bobida FFChni ftoridli tuzlarga qayta ishlash va fosforli o'g'itlar olish bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan. FFChni EFKli parchalash jarayonining kinetik ko'rsatkichlarini aniqlash va jarayonni o'tkazish uchun maqbul sharoitlarni topish ayniqsa muhimdir. Kislotali-termik parchalash uchun tarkibida P_2O_5 - 20,2%; F - 0,25%; Na_2O - 0,134% tutgan MQ YuKFKdan olingan EFK, bir vaqtning o'zida ftorsizlantirilgan va sulfatsizlantirilgan EFKdan hosil bo'lgan FFCh tarkibi, og'ir. %: CaO - 15,75; MgO - 0,44; P_2O_5 - 1,35; Na_2O - 10,03; P_2O_5 umum. - 3,24; SO_3 umum. - 22,5; F - 13,70 va sulfatsizlantirilgan EFKning ftorsizlantirish jarayonida hosil bo'lgan FFCh tarkibi, og'ir. %: P_2O_5 - 0,081; CaO - 0,34; MgO - 0,38; SO_3 - 1,05; Na_2O - 30,71; Fe_2O_3 - 0,28; Al_2O_3 - 0,40; F - 44,27 ishlatilgan.

Cho'kmaning parchalanishi EFK:cho'kindi = (3,50÷8,60):1 nisbatlarda 200-300°C harorat oralig'ida amalga oshirildi. Tajribaning davomiyligi 1 soatni tashkil etdi. Tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, bir xil EFK:cho'kindi nisbatida (4,75:1) haroratning 200 dan 275°C gacha ko'tarilishi ftorning ajralib chiqishi darajasining 94,76 % dan 97,16 % gacha oshishiga yordam beradi. 275°C doimiy haroratda EFK:cho'kindi og'irlik nisbatining 4,75:1 dan 6,70:1 gacha oshishi ham ftorning ajralib chiqish darajasining 97,16 dan 97,88 % gacha oshishiga olib keladi.

Jarayon omillarini keng oraliqda o'zgartirib, fosfat kislotasi eritmalaridan ajratilgan FFChdan ftorni fosfat kislotali haydashning kinetik xususiyatlari o'rganildi. 250-300°C harorat oralig'ida FFChni termik parchalanishining kinetik tadqiqotlari natijalari shuni ko'rsatdiki, jarayon Yerofeev tenglamasi bilan tavsiflanadi.

FFChning faollanish energiyalari aniqlandi va parchalanish tezligi konstantalari hisoblandi: parchalanishning dastlabki bosqichi uchun 38,49-39,76 kkal/mol va $3,60 \cdot 10^{-5}$ - $4,0 \cdot 10^{-4}$ daq⁻¹ hamda jarayonning yakuniy bosqichi uchun mos ravishda 20,80-21,90 kkal/mol va $11,56 \cdot 10^{-4}$ va $237,2 \cdot 10^{-4}$ daq⁻¹ va o'rtacha harorat koefitsientlari (0,7-1,3), ularning qiymatlari ftor o'z ichiga olgan mahsulotning termik parchalanish jarayoni diffuziya hududida sodir bo'lishini ko'rsatadi.

FFChning EFKli parchalanishidan olingan quyqalarning reologik xossalarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ular kislotaga reagentining cho'kindi nisbatiga va haroratga bog'liqligini ko'rsatdi. Quyqa olish jarayonida EFK:cho'kindi nisbatidagi o'zgarishlarning barcha o'rganilgan oralig'ida haroratning 200 dan 270°C gacha ko'tarilishi quyqaning qovushqoqligini 3 marotabadan ko'proq kamaytirishga olib keladi.

Tadqiqotlar natijasiga ko'ra Na_2SiF_6 ning kislotali-termik parchalanishida yuqori darajadagi ftorsizlantirishga erishish va oson oquvchan quyqa olish uchun 5-6 marotaba ortiqcha EFK va jarayon harorati (230-260°C) talab qilinadi. Kislotali-termik parchalanishning afzalligi konsentrlangan ftorli gaz fazasi, oson harakatlanuvchi va siklik, yaxshi eriydigan natriy fosfat eritmasi hosil bo'lishidir.

Past polimerlangan natriy fosfatlarni (PPNF) eritmaga o'tkazishning maqbul sharoitlari aniqlangan. Olingan natriy fosfatlar eritmasidan EFKni ftorsizlantirish va ftorni Na_2SiF_6 ko'rinishida cho'ktirish uchun aylanma eritma sifatida foydalanish imkoniyati ko'rsatildi va EFKni natriy tuzlari bilan ftorsizlantirishning siklik usuli yaratilgan va maqbul sharoitlari aniqlangan. Bunda ftorsizlantirish darajasini 3-5% ga ortadi.

Jarayonning dastlabki bosqichiga qaytariladigan FFChning fosfat kislotali parchalanishi va quyqadan olingan natriy fosfat eritmaları mahsulotlarining qovushqoqligi va zichligini haroratga bog'liqligi aniqlangan. FFChni EFK bilan kislotali-termik parchalashda ajralib chiqadigan ftorli (HF , SiF_4) gazlarni NaOH , NH_4OH va Na_2CO_3 eritmaları bilan absorbsiyalash jarayonlari orqali Na_2SiF_6 , $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$, NaF , CaF_2 va NH_4F olish o'rganilgan (6-jadval).


Ftorli gazlarni absorbsiyalash jarayonlarining maqbul omillari aniqlangan, bunda ftorni umumiy yutib qolish darajasi 99,0 - 99,8% va undan yuqori. Absorbsion eritmalaridan Na_2SiF_6 va $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$ hamda ularni natriy va ammoniy gidroksidlari bilan gidroliz qilib NaF , CaF_2 va NH_4F toza tuzlarini olish mumkinligi ko'rsatildi.

6-jadval


Ftorni absorbsiyalanish darajasi va absorbsion eritmasi kimyoviy tarkibining absorbsion reagentlar turlari va konsentratsiyasiga bog'liqligi

№, t/r	Eritma nomi	Erit. kons., %	Absorbsion eritmaning kimyoviy tarkibi, %					Ftorning absorbsiya darajasi, %
			F	SiO_2	Na_2O	NH_3	H_2O	
1	NaOH	5	6,53	3,43	3,55	-	86,49	99,89
		10	13,05	6,85	7,09	-	73,01	99,77
2	NH_4OH	5	7,33	3,85	-	2,19	86,63	98,21
		10	14,37	7,70	-	4,37	73,56	97,96
3	Na_2CO_3	5	4,85	2,56	2,64	-	89,95	99,79
		10	9,67	5,11	5,27	-	79,95	99,49

Dissertatsiyaning «Ftorsizlantirilgan ekstraksion fosfat kislotasi, kremneftorli va natriy, ammoniy, kalsiyli ftorli tuzlari va ftorsizlantirilgan fosforli o'g'itlar ishlab chiqarishning texnologik sxemasi va moddiy balansi» nomli beshinchi bobida Na_2SiF_6 , NaF , CaF_2 va ftorsizlantirilgan EFK olish hamda Na_2SiO_3 va natriy fosfat eritmalarini EFKni dastlabki ftorsizlantirish bosqichiga qaytarishning ikki usul: Na_2SiF_6 ning natriy gidroksid bilan gidrolizi (6-rasm) va Na_2SiF_6 ning EFK bilan kislotali-termik parchalash (7-rasm) orqali tozalangan EFK asosida ftorsizlantirilgan ammofos va ozuqabop monoammoniyfosfat ishlab chiqarishning moddiy balansi, texnologik rejim me'yorlari va prinsipial texnologik sxemalari keltirilgan.



6-rasm. Ftorsizlantirilgan ammosfos, ozuqabop monoammoniyfosfat va natriy kremniyftorid, natriy, kalsiy ftoridlari va natriy silikat eritmaları olish bilan ftorsizlantirilgan EFK ishlab chiqarish moslashuvchan texnologik sxemasi: 1, 4, 12 - sig‘imlar; 2, 5 - sarfo‘lchagichlar; 3, 11, 15, 20, 28 - aralashtiruvchi reaktorlar; 6, 14, 17, 21, 24 - nasoslar; 7, 18, 25 - tindirgichlar; 8, 13, 19, 22, 26 - filtrlar; 10 - lentli konveyer; 16 - shnek; 23, 27 - vakuumli-bug‘latish qurilmalri (VBQ); 29 - BDQ; 30 - elak; 31 - maydalagich; 32 - siklon.



7-rasm. – Cho‘ktiruvchi reagentlar – natriy fosfat va silikat sirkulyatsiyasi bilan FFChni EFK ishtirokida kislotali-termik parchalab ftorsizlantirilgan EFK va ftorli tuzlar ishlab chiqarishning prinsipial texnologik sxemasi: 1, 4, 9 - baklar; 2, 5, 10 - sarfo‘lchagichlar; 3, 11 - aralashtiruvchi reaktorlar; 6, 12, 15, 22, 25, 26 - nasoslar; 7, 13, 20 - tindirgichlar; 8 - induksion pech; 14, 21 - filtrlar; 16, 24 – sig‘imlar; 17, 18 – absorberlar; 19 - vakuumli-bug‘latish qurilmasi (VBQ).

Ushbu usullarning asosiy farqlari shundaki, birinchi usulda EFKni natriy tuzlari bilan ftorsizlantirishda hosil bo'lgan FFChni ishqoriy gidrolizlash orqali NaF, CaF₂ va Na₂SiO₃ ga qayta ishlanadi.

Ikkinchi usulda esa FFCh EFK bilan kislotali-termik parchalanadi va ftorli gazlar absorbsiyalanib natriy, kalsiy, ammoniyning ftorli tuzlarini olinadi. PPNF esa EFKni ftorsizlantirishning boshlang'ich jarayoniga qaytarish uchun EFK bilan qayta ishlanadi. Ikkala usulda ham hosil bo'lgan Na₂SiO₃ jarayonining dastlabki bosqichiga qaytariladi va natijada EFKni ftorsizlantirishning yopiq sikli yaratildi.

Ishlab chiqilgan ftorsizlantirish texnologiyasining sinovlari ishlab chiqarish sharoitlarini takrorlovchi «Elektrokimyozavod» QK-AJ model qurilmasida sinovdan o'tkazildi. Ftorsizlantirilgan EFK asosida ftorsizlantirilgan o'g'it – ammosfos olindi, unda an'anaviy usulda olingan ammosfosdan ftor miqdori o'rtacha 5-7 marotaba kam. Qo'shimcha mahsulot sifatida natriy, kalsiy ftoridlari va natriy silikat eritmasi olingan. Natriy va kalsiy ftoridlarini olish va natriy silikatni siklga qaytarish orqali EFKni ftorsizlantirish jarayonining prinsipial texnologik sxemasi ishlab chiqilgan va moddiy balansi tuzilgan.

500 ming tonna EFKni (Respublikada EFK ishlab chiqarish yiliga 500 ming tonnadan ortiqni tashkil qiladi) ftorsizlantirishda yiliga 4 470 tonna NaF va 560 tonna CaF₂ ishlab chiqarish mumkin. Bunda dastlabki texnik-iqtisodiy hisob-kitoblarga ko'ra, jami iqtisodiy samaradorlik 199,653 mlrd. so'mni tashkil etadi.

Paxtada ftorsizlantirilgan ammosfosning (52% P₂O₅, 10% N₂, 0,61% F) agrokimyoviy sinov natijalari shuni ko'rsatadiki, ozuqa moddalari teng bo'lgan holda faqat ftor konsentratsiyasini 3,0-4,5% dan (MQ YuKFKdan olingan standart ammosfos) 0,6% gacha kamaytirish evaziga paxtaning hosildorligi 2-2,5 s/ga oshadi. Tadjqiqot ishi natijalari xalq xo'jaligi muhim muammosi mintaqa ekologiyasini yaxshilash bo'yicha yechim taqdim etadi va ftorli tuzlar ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirish imkonini beradi.

XULOSA

1. MQ YuKFKdan olingan EFKni Na₂HPO₄, Na₂SO₄ va Na₂CO₃ lar bilan ftordan tozalash jarayoni tadqiq etildi va EFKni ftordan tozalashning maqbul omillari aniqlandi: natriy kremneftorid olishda stexiometrik hisobga nisbatan natriyli tuzlarning me'yori - 120-130 %, reaksiya harorati - 60-80°C, komponentlarni aralashtirish davomiyligi – 30 daqiqa, tindirish vaqti – kamida 120 daqiqa, tindirish xarorati – 30°C gacha, bunda ftorsizlanish darajasi natriyning fosfatli, sulfatli va karbonatli tuzlaridan foydalanilganda mos ravishda 34-38 %, 36-42 % va 35-41 % dan oshmaydi. EFKni ftorsizlanish darajasini kamligi aniqlandi. EFKni ftorsizlantirish darajasini pastligi sababi o'rganildi, kislotada eriydigan SiO₂ miqdorining kamligi va dastlabki EFKdagi ftorni to'liq bog'lashga yetmasligi aniqlandi.

2. Qo‘shimcha miqdorda kremniy (IV)-oksidi yoki natriy silikat ishtirokida EFKni ftorsizlantirishning eng maqbul texnologik parametrlari taklif etildi: natriy kremneftorid olish uchun stexiometrik miqdorga nisbatan Na_2SiO_3 me‘yori - 100 %, natriy ionlarining umumiy me‘yori - 120-130 %, aralashtirish harorati - 60-70°C, tindirish vaqti – kamida 120 daqiqa, tindirish harorati - 30°C dan yuqori emas. Bunda ftorsizlanish darajasi 80 % ni, ya‘ni bu silikat ionlari qo‘llanilmaganga nisbatan 2 barobar ko‘pni tashkil etishi ko‘rsatildi.

3. EFKdan qattiq fazani ajratish o‘rganildi va SFMsiz va SFM (PAA, SM-ESCh-MEA va aralashma PAA va SM-ESCh-MEA) ishtirokida oson quyuvlashuvchi va filtrlanuvchi qattiq fazalarni ajratish ko‘rsatgichlari aniqlandi. Fazalarni ajratishning eng maqbul ko‘rsatgichlari quyidagicha: bosim farqi - 70-80 kPa, qattiq fazalarning balandligi - 0,01 m, qattiq faza bo‘yicha filtrlash tezligi - 300-400 $\text{kg/m}^2 \cdot \text{soat}$. PAA boshqalarga qaraganda samaraliroq ekanligi aniqlandi. PAAning optimal miqdori (0,02-0,04 kg/t) bunda cho‘kish tezligi 2,3-8,0 marta va filtrlanish tezligi 1,7-1,9 marta ortadi. Fazalarni ajratish uchun maqbul parametrlarni aniqlash imkonini beradigan, qattiq fazaning solishtirma qarshiligidagi o‘zgarishlarni tasvirlash uchun grafik usul taklif etildi.

4. SiO_2 -ni Na_2SiO_3 birikmasi ko‘rinishida EFKni ftordan tozalashning boshlang‘ich bosqichiga qaytarish maqsadida, suyuq va qattiq fazalar - 3:1, natriy gidroksidi – 40 % va jarayon harorati - 30-40°C da natriy kremneftoridning ishqoriy gidrolizga bog‘liqligi ko‘rsatildi. Davlat andozalari talablariga javob beradigan NaF va CaF_2 , sintez qilish va EFKni ftorsizlantirish uchun Na_2SiO_3 suspenziyasini dastlabki bosqichga qaytarish mumkinligi isbotlandi.

5. Na_2SiF_6 ni natriy gidroksidi bilan gidrolizi natijasida hosil bo‘lgan Na_2SiO_3 suspenziyasini NaF dan tozalash usuli o‘rganildi. Bunda quyidagi eng maqbul ko‘rsatgichlar aniqlandi: CaO me‘yori - 95-100 %, harorat - 30-40°C, Na_2SiO_3 suspenziyasi miqdori - 20-40 %. Natijada ftorsizlanish darajasi 99 % ga yetadi. CaF_2 kristallining cho‘kish tezligi 5-7 m/soat tashkil qiladi. Olingan qattiq fazaning tuz tarkibi kimyoviy va fizik-kimyoviy tahlil usullar bilan aniqlandi.

6. Tashqaridan cho‘ktiruvchi qo‘lmasdan ftorni natriy fosfat va silikat eritmalarini siklga qaytarish orqali EFKni fosfatkislotali sistemasini ftorsizlantirish mumkinligi fizik-kimyoviy asoslandi. Jarayonni olib borishning maqbul sharoiti aniqlandi va ftorsizlantirilgan mineral o‘g‘it tarkibida F/ P_2O_5 miqdori maqbul sharoitda 6-8 martaga kamayganligi isbotlandi.

7. Ilk bor fosfat kislotasi eritmadan ajratilgan FFChdan ftorni fosfat kislotali haydashning kinetik xususiyatlari jarayon parametrlarini keng oraliqda o‘zgartirib tadqiq etildi. Jarayonning tezlik konstantalari va aktivlanish energiyalari hisoblab chiqildi va past polimerlangan natriy fosfatlarni eritmaga o‘tkazishni maqbul sharoitlari taklif etildi.

8. EFKni ftorsizlantirishda F ni Na_2SiF_6 holida yuqotishda yuvilgan natriy fosfat eritmasini siklik eritma sifatida ishlatish va texnologik ko‘rsatgichlarning

qulay sharoitlarini o‘rnatish mumkinligi ko‘rsatildi. Bu holda EFKni natriy tuzlari bilan siklik ftorsizlantirish usuli yaratildi. Bunda ftorsizlanish darajasi 3-5 % ga ortgan. Ftor saqlovchi fazani fosfat kislotasi bilan parchalab olingan suspenziyadagi natriy fosfatni jarayonning dastlabki bosqichiga qaytaruvchi birikmaning reologik xususiyatlariga bog‘liqligi aniqlandi.

9. FFChni EFK ishtirokida kislotali-termik parchalash orqali olingan ftorli gazlarni (HF , SiF_4) natriy, ammoniy gidroksidlari va natriy karbonat bilan absorbsiyalab, natriy va ammoniy kremneftorid va ftoridlari olish jarayoni taklif etildi. Umumiy absorbsiya koeffitsenti F 99,0 - 99,8 %, ftorli gazlarning absorbsiya jarayonining optimal ko‘rsatgichlari o‘rnatildi. Absorbsion suspenziyadan toza Na_2SiF_6 va $(\text{NH}_4)_2\text{SiF}_6$ hamda ularni NaOH va NH_4OH bilan gidrolizlab, toza NaF , CaF_2 va NH_4F tuzlarini sintez qilish mumkinligi isbotlandi.

10. “Elektrokimyozavod” QK-AJning ishlab chiqarish sharoitlarini takrorlovchi ishlab chiqarishga yaqin sharoitda EFKni ftorsizlantirish bo‘yicha sinov tajribalari o‘tkazildi. EFKdan ftorni tazalash koeffitsenti 75-80 %, qolgan ftor miqdori esa 0,2-0,3 % teng. Ftorsizlantirilgan EFK asosida tarkibidagi ftor hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan ammofosga nisbatan 6-8 marta kam ftor bo‘lgan ammofos o‘g‘iti sintez qilindi va asosiy mahsulot bilan bir vaqtda ikkilamchi mahsulotlar NaF , CaF_2 va Na_2SiO_3 eritmasi ishlab chiqarish tavsiya etildi. O‘tkazilgan sinovlar asosida Na_2SiO_3 ni dastlabki bosqichiga qaytarish orqali bir vaqtda ftorsizlantirish va ikkilamchi mahsulotlar NaF va CaF_2 olishning texnologik sxemasi va material balansi tuzildi.

11. Ftorsizlantirilgan ammofosni (52 % P_2O_5 , 10 % N_2 , 0,61 % F) paxta o‘simligida o‘tkazilgan agrokimyoviy tekshirish natijalari shuni ko‘rsatdiki, ozuqa moddalari me‘yori teng bo‘lganda ftor konsentratsiyasini 3,0-4,5 % dan 0,6 % gacha kamaytirish hisobiga paxta hosildorligini 2,0-2,5 s/g ortishi ko‘rsatib berildi. Tadqiqot ishlari umumiy natijalari mintaqalar ekologiyasini yaxshilash va ftorli tuzlar ishlab chiqarish uchun xomashyo bazasini kengaytirish kabi muhim xalq xo‘jaligi muammolarini yechish uchun tavsiya etildi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.01.2023.К/Т.78.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ
ТЕРМЕЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНВЕРСТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

ХОДЖАМКУЛОВ САХОМИДДИН ЗОИРОВИЧ

**РАЗРАБОТКА ТЕХНОЛОГИИ ПОЛУЧЕНИЯ ФТОРИСТЫХ СОЛЕЙ И
ОБЕСФТОРЕННЫХ ФОСФОРСОДЕРЖАЩИХ УДОБРЕНИЙ
ОЧИСТКОЙ ЭКСТРАКЦИОННОЙ ФОСФОРНОЙ КИСЛОТЫ ИЗ
ФОСФОРИТОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ КЫЗЫЛКУМОВ**

02.00.13 – Технология неорганических веществ и материалов на их основе

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА
ТЕХНИЧЕСКИХ НАУК (DSc)**

Термиз - 2024

Тема диссертации доктора наука (DSc) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инновации за номером E2023.4.DSc/T696

Диссертационная работа выполнена в Термезском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице по адресу Научного совета www.tersu.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziyo.net.uz.

Научный консультант:

Мирзакулов Холтура Чориевич
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Жуманиязов Мақсуд Жаббиевич
доктор технических наук, профессор

Алимов Умарбек Кадирбергенович
доктор технических наук

Эргашев Дилмурод Адилжанович
доктор технических наук, доцент

Ведущая организация:

Навоийский государственный горный и технологический университет

Защита диссертации состоится «30» 05 2024 г. в «10⁰⁰» часов на заседании Ученого совета на основе Ученого совета DSc.03/30.01.2023,К/Т.78.01 при Термезском государственном университете по адресу: 190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43. Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz.

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Термезского государственного университета за №248, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (190111, Сурхандарьинская область, г. Термез, ул. Баркамол авлод, 43.Тел.: (+99876) 221-74-55, факс: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Автореферат диссертации разослан «15» 05 2024 года.
(протокол рассылки № 5 от «15» 05 2024 г.).



И.А. Умбаров
Председатель научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.т.н., доц.

Ш.А. Касимов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых
степеней, д.х.н., доц.

Р.В.Аликулов
Председатель научного семинара
при научном совете по присуждению
ученых степеней, д.х.н., проф.

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора наук (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. С мировым развитием фосфатной отрасли химической промышленности чрезвычайно остро возникли проблемы накопления загрязнителей литосферы, одним из которых можно считать фтор. Фтор и его соединения оказывают непоправимый ущерб окружающей среде вследствие их высокой и биологической активности. Однако неорганические фториды щелочных металлов широко используются в различных сферах экономики и имеют высокий спрос. Поэтому крайне важно наложить перспективные разработки попутным извлечением фтора из полупродуктов производства аммофоса для обеспечения растениеводства и животноводства обеззараженными продуктами, что является одним из гарантий развития циркуляционной экономики и обеспечения продовольственной безопасности республики.

В мире проводятся научные исследования по разработке современных технологий обесфторивания экстракционной фосфорной кислоты (ЭФК), являющегося сырьем для производства фосфорных удобрений и переработки его в эффективные фосфорсодержащие минеральные удобрения, кормовые фосфаты и фтористые соли. В связи с этим, разработка эффективных методов очистки от фтора ЭФК, полученной из мытого обожженного фосконцентрата (МОФК) Центральных Кызылкумов (ЦК): установление влияния различных технологических параметров на коэффициент очистки от фтора ЭФК с применением солей щелочных металлов и аморфного кремнезема; нахождение оптимальных условий получения обесфторенной ЭФК с заданным составом и свойствами; установление оптимальных технологических параметров процессов обесфторивания и переработка Na_2SiF_6 на фториды натрия и кальция; изучение процесса гидролиза в зависимости от технологических факторов; разработка технологии получения фторида натрия, кальция и аммония методом ступенчатого осаждения и кислотнотермической обработкой фторфосфатных осадков (ФФО); особое внимание уделяется разработке гибкой технологической схемы процесса обесфторивания ЭФК, аммофоса, кормового моноаммонийфосфата и Na_2SiF_6 , фторидов натрия и кальция.

В республике достигнуты фундаментальные и прикладные результаты исследования в сфере получения обесфторенных фосфатов из местных фосфоритов ЦК с применением кислотных, кислотнотермических и осадительных методов. В стратегических планах развития Узбекистана на 2022-2026 гг. поставлены цели для достижения стабильности национальной экономики, повышение промышленной составляющей в ВВП и увеличения производства промышленной продукции в 1,4 раза³. В этом аспекте следует крайне необходимым выполнять научные исследования в отношении выбора технологического параметра обесфторивания ЭФК солями натрия, калия и кальция по циркуляционной схеме с возвратом ценных компонентов как

³ Указами Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы».

кислоторастворимого диоксида кремния, гидроксидов натрия, аммония и уменьшение до требуемых норм фтора в ЭФК и производство на ее основе экологически безопасных фосфатов, фторидов и других различных солей имеет особую актуальность для производства в Республике эффективных с низкой себестоимостью удобрений и кормовыми фосфатами.

Данная работа в соответствующей степени отвечает требованиям целей, поставленных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы» и в Постановлениях Президента Республики Узбекистан № ПП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию и повышению инвестиционной привлекательности химической промышленности», № ПП-4937 от 28 декабря 2020 года «О мерах по реализации инвестиционной программы Республики Узбекистан на 2021-2023 годы», № ПП-4992 от 13 февраля 2021 года «О мерах по дальнейшему реформированию и финансовому оздоровлению предприятий химической промышленности, развитию производства химической продукции с высокой добавленной стоимостью», и в ряде других документов государственных структур данной отрасли.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и технологий в республике. Результаты проведенных исследований отвечают требованиям современного совершенствования науки и технологии в республике VII. «Химические технологии и нанотехнологии».

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации⁴.

Научные исследования, посвященные синтезу из разновидностей природных фосфатов обезфторенной фосфорной кислоты, чистых фосфорных удобрений и кормовых фосфатов проводятся в ведущих научных центрах и высших образовательных учреждениях мира, в том числе в индустриальном институте исследований фосфатов во Флориде (США), Инжиниринг Доберсек GmbH (Германия), университете науки и технологии (Китай), исследовательском центре (Польша), «Химическое объединение» (Япония), департаменте химии (Индия), департаменте металлургического инжиниринга (Иран), АО «НИУИФ» им. Я.В. Самойлова (Россия), Санкт-Петербургском ГТИ (ТУ) (Россия), институте общей и неорганической химии Академии наук Республики Узбекистан и Ташкентском химико-технологическом институте (ТХТИ) (Узбекистан).

В мировых исследованиях по методам получения обезфторированной фосфорной кислоты, основанным на очистке фтора, содержащегося в ЭФК, в присутствии различных щелочных солей получены следующие научные результаты: предложены различные методы очистки кислоты от фтора натриевыми солями (Башкирский технологический институт, г. Уфа, РФ), представляют интерес разработки технологий извлечения примесных металлов - ионов Ca, Mg, Fe₂O₃ и Al и примесей анионов – F⁻, SiF₆²⁻, SO₄²⁻ с применением сорбентов и ионообменных смол (исследовательский центр,

⁴ Обзор иностранных научных исследований по теме диссертации произведен на основе: <https://science.sciencemag.org/content/220/4595/365>, <https://www.annualreviews.org/doi/abs/10.1146/annurev.matsci.27.1.89>, webmaster: webmaster@ogbus.ru и других источников.

Польша), разработаны методы повышения концентрации ЭФК с ее выпариванием на первом этапе до концентрации 50-54% P_2O_5 , что позволяет достигнуть степени очистки от фтора до 70%, очистки ЭФК от фтора его осаждением в малорастворимой форме Na_2SiF_6 и K_2SiF_6 (Санкт-Петербургский государственный технологический институт (технический университет), Россия), из смеси газов газы фтора сорбционным методом извлечены (США), соли щелочных металлов получали обесфториванием экстракционной фосфорной кислоты (Китай), фтор, содержащийся в экстракционной фосфорной кислоте, экстрагировали экстракционным методом (Япония).

В мире ведутся исследования обесфторивания ЭФК солями щелочных металлов и переработки в обесфториванные фосфорные удобрения и кормовые фосфаты проводятся по следующим приоритетным направлениям, в том числе осаждение в виде солей фтора путем добавления к ЭФК кислоторастворимого кремния, переработки осадков фтора в солей фторидов натрия и кальция, поиск способов переработки раствора силиката натрия путем щелочного гидролиза кремнийфторида натрия, совершенствование и создание современных ресурсосберегающих технологий обесфторивания ЭФК, разработка новых технических решений по переработке в обесфториванные фосфорные удобрения и кормовых фосфаты.

Степень изученности проблемы. Вопросами по очистке от примесей ЭФК, полученной из различных видов фосфатного сырья занимались многие ученые (Позин М.Е., Кочетков С.П., Дмитревский Б.А., Зайцев В.А., Шарипов Т.В., Бушуев Н.Н., Волкова В.В., Смирнов Н.Н., Мустафин А.Г., Ракчеева Л.В., Гриневич А.В., Коваленко А.М., Зильберман Б.Я., Хромов С.В., Воробьев Н.И., Семенов А.Д., Heng W., Skafi M., Lijun Z., Zinin D.S., Das, S.K., Yadav K., Zhu X., Antipov S.V., Li X., Huang R., Kirish K.S., Намазов Ш.С., Гафуров К., Эркаев А.У., Мирзакулов Х.Ч., Шамшидинов И.Т. и др.). Эти работы, главным образом, посвящены удалению из ЭФК фтора, сульфатов и R_2O_3 , но отсутствуют исследования по производству очищенной от фтора ЭФК, синтезированной из МОФК ЦК, воздействию параметров на процесс переработки МОФК ЦК в едином технологическом цикле производства, влиянию минералогического и химического состава МОФК, видов обесфторивающего реагента на технологические показатели процесса очистки, разделения, гидролиза, абсорбции и получения готовой продукции – обесфторенной ЭФК и на ее основе аммофоса, фтористых солей натрия, кальция и аммония.

В последние годы публикуется множество исследований по обесфториванию ЭФК щелочными солями, органическими реагентами и их рециркуляцией. Эти технические решения требуют дополнительных капитальных вложений. Поэтому необходимо показать отсутствие исследований по очистке от фтора ЭФК отстаиванием и фильтрацией получающихся суспензий, а также по получению фтористых солей натрия и аммония, раствора силиката натрия гидролизом $NaOH$ и кислотнотермическим разложением ФФО ЭФК, тем самым создавая

циклический способ обесфторивания ЭФК солями (фосфатами и силикатами) натрия и разработка технических решений по переработке выделенных соединений фтора.

